

**ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘QITISH
(8-SINF DARSLIGI ASOSIDA)**

Qurbonova Norjona Sherdavlat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

E-mail: norjonaqurbonova@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy o‘quvchilarni mumtoz adabiyotga olib kirish, mumtoz asarlarga nisbatan muhabbat uyg‘otish, Navoiyni anglashda yordam berish, Navoiy lirikasi va shaxsiyatini muvofiqlikda o‘rgatish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada Navoiy va ijodini oson va samarali o‘rganish muammolari yoritilgan.

Dars mavzusi: Alisher Navoiy. Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Ruboiylari tahlili. Nazariy ma‘lumot: ruboiy. Tuyuqlari tahlili. Fardlarni o‘qib tahlil qilish. Nazariy ma‘lumot: fard. (4 soatga mo‘ljallangan)

1-soatda :

Alisher Navoiy portreti yoki qisqa videorolik namoyish etiladi. Alisher Navoiyning hayotiga oid hikoya aytib beriladi. Shu o‘rinda metodist olim va olimlarning fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: "Adibning bosib o‘tgan yo‘li, ijodiy faoliyati biografik ma‘lumotda o‘ziga xos o‘rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma‘naviy e‘tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo‘lgan hayot yo‘li o‘z aksini topadi. O‘quvchi so‘z ustasining kimligini, orzu-o‘ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan ko‘proq bilib oladi. Demak, bu yerda beriladigan ma‘lumotlarning yoshlar uchun ma‘rifiy ahamiyati katta. Tarjimai holning shu qismi orqali tarixiy davr bilan tanishish ham yuz beradi". (Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Shafolat nur fayz. 2020 294-bet) Zunnunov A. va boshqalar muallifligida nashrga chiqqan "Adabiyot o‘qitish metodikasi" dagi fikrlar ham darsda nega hikoyadan foydalanganimizning javobidir: "Yozuvchining hayot yo‘li va adabiy faoliyatini o‘rganishda uning siymosi ibratli tarzda yoritilgan asarlarni eslatish, hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan voqealarni qisqacha hikoya qilish darsning qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi". (Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: O‘qituvchi, 1992.) "Alisher Navoiy va usta" hikoyasini aytib berish tavsiya etiladi.

“Alisher Navoiy va usta”

Navoiy devonbegi lavozimida ishlagan va tabiiyki, devonda ko‘p vaqtini o‘tkazganlar. Devonga xalqdan turli xatlar kelardi va Navoiy xatlardagi muammolarni hal qilishda katta jonbozlik ko‘rsatgan. Kunlarning birida bir xatni o‘qib ko‘radi va bu xat Hirotning qaysidir mahallasida yashovchi usta haqida bo‘ladi. Xatda ustaga moddiy

yordam kerakligi qayd etilgan edi. Navoiy ustaning muammosini yechishni ko‘ngliga tugun qilib qo‘yadi.

Hirotda juma kuni dam olish kuni edi. Husayn Boyqaro juma namozini saroy a‘yonlari bilan birgalikda masjidida o‘qirdi va namozdan keyin xalq ahvolidan xabar olardi. Qahraton qish kunlarining bir jumasida Husayn Boyqaro juma namozidan chiqqach qaysi mahallaga boishni maslahat qiladi. Shunda Navoiyning xotirasiga usta keladi va o‘sha mahallaga borishni taklif etadi. Mahallada yurgangalarida taq -taq etgan ovoz kela boshlaydi. Husayn Boyqaroning bundan jahli chiqadi, chunki juma namoziga bormagan kishini yoqtirmas edi. Navoiy ustaning uyiga kelganini anglaydi. Xatda usta juda nochor, sog‘ligidan ayrilayotgani bitilgan edi. Shuning uchun Navoiy Husayn Boyqarodan ijozat so‘rab yolg‘iz usta yoniga kiradi.

Navoiy usta bilan salomlashgach quyidagi savolni beradi:

-Usta, uchingiz to‘rtga yetmadimi?

Usta javob beradi:

-Shuncha harakat qilsam ham uchim to‘rtga yetmayapti.

Navoiy ikkinchi savolni beradi:

-Vaqtida ekmagan ekansiz-da ?!

Usta javob beradi:

-Ekkanman, el o‘rib olgan.

Navoiy yana savol beradi:

-Do‘stlaringiz qalay?

Usta biroz o‘ylanib javob beradi:

-Do‘stlarim bir necha yil bo‘ldi dushmanga aylanishdi. Hozir har qadamda menga ranj yetkazishadi.

Navoiy ustaga e‘tibor bilan qarab quyidagi savolni beradi:

-Ikkingiz qalay?

Usta javob beradi:

-Ikkim bir necha yillar bo‘ldi uchga aylandi.

Navoiy biroz o‘ylanib quyidagicha savol beradi:

-Uzog‘ingiz qalay ?

Usta xijolat bo‘lib:

-Nimasini aytasiz, ancha yillar bo‘ldi, uzog‘im yaqin bo‘lib qoldi.

Navoiy orada o‘yga toladi va ustaga qarab :

-Usta, bir g‘oz bersam , patini yulib berasizmi?

Usta seskanib ketadi va javob beradi:

-G‘ozning patini yulishni uddalayman-u, lekin oqibatini o‘ylayman.

Navoiy kulimsirab javob beradi:

-Oqibatini o‘ylamang , oqibati mening gardanimda.

Navoiy ustaning uyidan chiqayotganda labida tabassum bilan:

-Usta, meni ne‘matlarimni arzon bahoga garovlamang!

Usta kulib javob qaytaradi:

-Hazratim,sizning ne‘matingizni arzon bahoga garovlamayman.

Suhbatni Husayn Boyqaro, Shaxobiddin, Majididdin va boshqa mulozimlar eshitib turgan bo‘ladi. Shaxobiddin va Majididdin Navoiyning dushmanlari bo‘ladi va

Navoiyga turli bo‘htonlar uyushtirishadi. Lekin Husayn Boyqaro bularga ishonmaydi. Mana shu suhbat nima haqida ketganini bilishni Majididdinga topshiradi va uch kun muhlat beradi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarga murojaat qilinadi: Nima deb o‘ylaysiz , Navoiy usta bilan nimalar haqida suhbatlashdi?

Hikoyaning davomi quyidagicha:

Majididdin butun Hirotdagi donolar bilan suhbatlashadi, ammo Navoiy va usta nimalar haqida so‘z yuritganini bilolmaydi. Oldida ikki yo‘l qolgandi: Yo Navoiyning o‘zidan so‘rash, yo ustadan so‘rash. Tabiiyki ,Navoiydan so‘ray desa g‘ururi yo‘l qo‘ymaydi. Chunki Navoiyning dushmani bo‘ladi. Ustaning mahallasi tomon yo‘lga otlanadi. Ustaga Hirotdagi vaziyat, siyosat haqida gapirib beradi va muddaoga o‘tadi. O‘sha kuni Navoiy bilan bo‘lgan savol-javobda nimalar haqida gaplashganini so‘raydi. Usta javob berishdan bosh tortadi. Majididdin ustaga:

“Husayn Boyqaro javobini topa olmasang, boshing dorda bo‘ladi” deb aytadi va har bir javob uchun 100 tanga berishini aytadi. Usta shu paytda tabassum qiladi. Navoiyning mahoratiga qoyil qoladi. Usta rozi bo‘lmaydi. Majididdin har bir javobi evaziga 1000 tanga berishni taklif qilganda ,usta javobini aytishga majbur bo‘ladi. Chunki uning moddiy ahvoli va sog‘ligi yomon bo‘ladi.

Majididdin:

-Navoiy, uchingiz to‘rtga yetmadimi deganda nimani nazarda tutdi?

Usta:

-Uch faslda mehnat qilaningiz to‘rtinchi faslga yetmadimi deb nazarda tutgan edilar.

Majididdin yana savol berishda davom etadi:

-Vaqtida ekmagan ekansizda, ekkkanman, El o‘rib olgan degan gaplarning ma‘nisi ne erur ?

Usta :

-Vaqtida ekmagan ekansizda deganda farzandga ishora qildilar. Ekkkanman degani farzandli bo‘lganman, El o‘rib olgan degani qiz farzandlarim bor, hammasini uzatganman degan ma‘noda edi.

Majididdin taajjub bilan yana savol beradi:

-Do‘stlaringiz qalay, deb nimaga ishora qildi?

Usta kulib javob qaytardi:

-Men Navoiy shu savolni berganda ,maktubdagi men haqimdagi gaplarni tekshirayotganini bildim. Insonning do‘sti bu uning tishlaridir.

Majididdin yana savol beradi:

-Navoiy, ikkingiz qalay, deganda nimani nazarda tutdi?

Usta shunday dedi:

-Navoiy meni oldimga kelganlarida men o‘rnimdan turolmay, o‘tirgan joyimda javob berdim va shuning uchun bu savolni bergandilar. Navoiy hazratlari oyog‘imni nazarda tutgan edilar. Men asoga suyanib qolganim uchun ikkim uch bo‘lganini aytdim.

Majididdin:

-Shunday bo‘lsa,uzog‘ingiz qalay deb sizdan nimani so‘radi?

Usta tabassum bilan dedi:

-Navoiy suhbatimiz davomida ko‘zimning ko‘rish qobiliyatini ham inobatga olib shunaqa savol bergandi.Meni javobimdan so‘ng ,ko‘zim xiralashganini bildilar va menga yaqinroq kelib suhbatni davom ettirdilar.

Majididdin :

-Navoiy g‘oz deb kimni nazarda tutdi?

Usta kulgi va xijolat aralash javob berdi:

-G‘oz bu siz.Navoiy sizni yonimga kelishingizni oldindan bashorat qilgan edilar.Men Navoiyga bergan va‘damni ustidan chiqdim va ne‘matlarini arzon bahoga garovlamadim.

Izoh: Bu hikoya orqali Navoiyning nafaqat buyuk shoir,ijodkor ,davlat arbobi,balki donishmand, faylasufigini bilib olamiz .Biz shu kungacha Navoiyni faqat chinakam iste‘dod egasi sifatida baholagan edik.Qarangki,o‘sha davrda qandayin aqlli insonlar bo‘lgan.Buni usta misolida ko‘rishimiz mumkin.Navoiy zamonida oddiy usta ham bilimdon kishi bo‘lgan.Undan tashqari, ijodkor tarjimayi holini o‘qitishda ibratli hikoyatlarni o‘rgatish mavzuni to‘liq ochib berishga yordam beradi.

Keyingi o‘rinda o‘quvchilar Navoiyning tarjimayi holidagi ayrim ma‘lumotlar bilan qisqacha tanishtiriladi.

Tarjimayi hol bilan tanishtirilgach, o‘quvchilarga ruboiy haqida ma‘lumot beriladi.

Ruboiy haqida nazariy ma‘lumot beriladi:

Ruboiy arabcha so‘zdan olingan bo‘lib , " to‘rttadan", "to‘rtlik" ma‘nolarini bildiradi.a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzidagi qofiya tizimiga ega, falsafiy, ijtimoiy -siyosiy , ishqiyy va axloqiy mavzularda , hazaj bahrida yoziladigan to‘rt satrli she‘r ruboiy deyiladi.

Navoiy 500 ga yaqin ruboiy bitdi:

- "Devoni foniy" da 100 ga yaqin;

- "Nazm ul-javohir" 270 ta;

- "G‘aroyib us-sig‘ar " da 133 ta;

- "Xazoyin ul-maoniy" ga yozilgan "Debocha" da 30 ta.

Bitta ruboiysi namuna sifatida o‘qib va vaqt yetsa tushuntirilib beriladi:

Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,

Baxtim kibi har ishta zabunluq qildi,

Gah kom sari rahnamunluq qildi,

Alqissa , base buqalamunluq qildi.

Mazkur ruboiy a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Chunki "dunluq","zabunluq","rahnamunluq "va "buqalamunluq" so‘zlari o‘zaro qofiyalangan. Shuning uchun ham taronayi ruboiy hisoblanadi. "Qildi "so‘zi esa radif bo‘lib kelyapti.

Notanish so‘zlar:

Gardun-taqdir

Dunluq-pastlik

Zabunluq -xor-u zorlik

Kom-maqсад

Rahnamunluq-yo‘l ko‘rsatuvchilik

Buqalamunluq -tabiatdagi rangga qarab o‘z rangini o‘zgartiruvchi hayvon.

Notanish so‘zlar izohini bilib oldingiz, kim izohlashga harakat qiladi? deb o‘quvchilarga murojaat qilinadi.

Javoblar eshitilgach, o‘qituvchi javoblarni umumlashtirilgan holda hasbi hol tarzda yozilganiga urg‘u beradi.

Darsni mustahkamlash: Bunda “Sirli raqamlar” metodidan foydalanamiz. Doskaga mavzuga oid muhim deb topilgan raqamlar yoziladi. O‘quvchilar birin-ketin chiqishib, raqamlarda aks etgan ma‘lumotlarni aytishadi.

Uyga vazifa:

1. Ruboiy haqida nazariy ma‘lumotlarni o‘qib kelish.
2. Darslikda berilgan ruboiylar bilan tanishish va ularni sharhlashga harakat qilish.
3. O‘zingizga yoqqan ruboiyni yod oling.

2-soatda:

Yangi mavzu: Ruboiylar tahlili.

Uyga vazifani so‘rash: Bunda quyidagi metoddan foydalangan holda so‘raladi:

"To‘rtinchisi ortiqcha" metodi. Bunda Navoiyning uchta ruboiysi va Lutfiydan bitta ruboiy keltiriladi. Ziyrak o‘quvchi Navoiyning ruboiysi bo‘lmagan, ortiqcha ruboiyni topadi.

Dastlab darslikda berilgan ruboiylar tahlili ustida ishlanadi. Savollar va topshiriqlar bajariladi. Bo‘shliqlar to‘ldiriladi. Ruboiy tahliliga oid namuna:

G‘urbanda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

O‘quvchilarga ruboiyni ifodali o‘qish qoidalari ham o‘rgatiladi. Undan so‘ng tahlilga o‘tiladi.

Notanish so‘zlar:

G‘urband -musofirlik

G‘arib -begona yurtda yashayotgan kishi.

Shafiq- shafqat

Oshyon -vatan.

Qofiyalanishi: a-a-b-a.

Ruboiyning mazmunini yaxshiroq ochib berish uchun, albatta tarixiy hikoyatlar, maqollar, hadislardan foydalanish zarur. Biz bu o‘rinda “Hubbul - vatani minal – imoni” – “Vatanni sevmoq imondandur”(Hadis ("Al-jome‘ as-sahih"1-2-jildlar.-T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.1997) hadisidan foydalandik. Ushbu o‘rinda o‘quvchilar fikrlari ham tinglanadi. Qolgan ruboiylar ham shu tarzda tahlil qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash: Mavzuni mustahkamlashda “Muammoli savollar” dan foydalaniladi. Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Nima deb o‘ylaysiz, Navoiy ruboiylari va uning hayoti o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. “G‘urbat” sizningcha, nima?
3. “Umri aziz” deganda Navoiy kimni yoki nimani nazarda tutyapti?

Baholash: Darsda ishtirok etgan har bir o‘quvchi izohi bilan baholanadi. Rag‘batlantiriladi. Bunda noan‘anaviy yondashish mumkin. Ya‘ni odatdagi baholardan emas, balki Navoiyning surati tushirilgan kichkina qog‘ozchalardan. Ular o‘quvchilar daftoriga yopishtirib qo‘yiladi.

Uyga vazifa: Ruboiylar mazmunini o‘rganish va mazmuniga mos birorta hikoya aytib berish vazifa sifatida beriladi.

3-soatda:

Mavzu: Tuyuqlar tahlili

Uyga vazifa so‘rash tartibi:

1. **"FSMU" metodi.** Bu metodda F-fikr, S-sabab, M-muhokama, U-umumlashma. Ruboiy bo‘yicha ishlaganda, o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga ma‘lum bir fikr yoziladi, o‘quvchilar esa sabab, muhokamada faol qatnashadi va o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda umumlashmani hosil qiladi.

2. **"Moslik jadvali"** . Bu metodda bir qatorga raqamlangan holda ma‘lum tushuncha beriladi, ikkinchi qatorda esa harflangan holda izohlar berilgan bo‘ladi. Tushuncha va fikrlar o‘quvchilar tomonidan moslantiriladi.

Mavzu: Tuyuqlar tahlili

Tuyuq-turkiy she‘riyatga xos bo‘lgan janr. Tuyuq haqida o‘tgan darslarda batafsil to‘xtalib o‘tilgan edi. Navoiy barcha tuyuqlarini "Badoye‘ ul-vasat" devoniga kiritgan va ularning soni 13ta. Tuyuqning qofiyasida kelgan shaklan bir xil so‘zlar har satrda har xil ma‘no anglatishi kishini quvontiradi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi tuyuqni tahlilga tortamiz:

Tig‘i ishqing yorasidir butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,
Anda gul yoxud gyohe butmagan.

Mazkur tuyuqda "butmagan" so‘zi tajnis bo‘lib kelmoqda. Tajnis nima edi? deb o‘quvchilarga murojaat qilinadi.

Javob eshitilgach, har bir misradagi "butmagan" so‘zi ma‘nosi izohlanadi:

- 1-misrada "tuzalmagan" ma‘nosida ;
- 2-misrada "tugatmagan" ma‘nosida ;
- 4-misrada "o‘smagan" ma‘nosida.

Tuyuq ishqiy mavzuda bitilgan. Lirik qahramon yorning ishqig‘i qalbini shu darajada yaralabdi, u haligacha bitmaganini aytyapti. Keyingi misrada yara jonlantirilyapti: u dardini hech kimga aytib tugata olmayapti. 3-misrada "hajr sahrosi" tilga olingan. Tasavvur qiling, lirik qahramon shu darajada oh-u nola qilayaptiki, uning ohidan sahro yonyapti. Shunday ekan, bunday ohning olovidan bu yerda biror giyoh o‘smaydi-da. Bu bilan shoir "Husni ta‘lil" san‘atini qo‘llagan. Bu san‘atda chiroyli va mantiqiy dalil keltiriladi.

Qolgan tuyuqlar ham xuddi shu tarzda tahlilga tortiladi.

Darsni mustahkamlash: O‘quvchilarning darsni qay darajada o‘zlashtirganliklarini tekshirish maqsadida “Tezkor savollar” bilan murojaat qilinadi:

1. Tuyuq nima?
2. Tajnis nima?
3. Omonim so‘z bilan tajnisning farqi nimada?

Baholash: Darsda ishtirok etgan har bir o‘quvchi izohi bilan baholanadi. Rag‘batlantiriladi. Bunda noan‘anaviy yondashish mumkin. Ya‘ni odatdagi baholardan emas, balki Navoiyning surati tushirilgan kichkina qog‘ozchalardan. Ular o‘quvchilar daftoriga yopishtirib qo‘yiladi.

4-soat

Mavzu: Fardlarni o‘qib, tahlil qilish. Nazariy ma‘lumot:fard.

Uyga vazifani so‘rash: Uyga vazifa quyidagi usulda so‘raladi:

1. "5x5x5" **metodi.** Bunda sinfdagi 25ta o‘quvchi 5tadan 5ta guruhga ajratiladi. Har bir guruhga muammoli savollar beriladi. Beshta guruhdagi beshta o‘quvchi ham javob berishda ishtirok etsa ular rag‘batlantiriladi. G‘olib bo‘lgan guruh kam ball to‘plagan guruhga dars o‘zlashtirishda yordam beradi.

Muammoli savollar sifatida quyidagilarni berish tavsiya etiladi:

1. Ruboiy dastlab fors va turk she‘riyatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, nega arabcha nom olgan?
2. Sizningcha, nega Alisher Navoiy hazrat Alining so‘zlari jamlangan "Nasr ul-laoliy" asarini "Nazm ul-javohir"deb she‘riy usulda tarjima qilgan?
3. Nega ijtimoiy-falsafiy fikrlar tuyuqlarga qaraganda ruboiylarda keng yoritib beriladi?
4. Nega taqdir Navoiyga “**buqalamunluq**” qilgan? Axir Navoiy Husayn Boyqaroning do‘sti, ulug‘ martabali zot edi-ku?
5. Darslikda berilgan qaysi ruboiyda g‘oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyat kuchli deb o‘ylaysiz?
6. Nega inson yoshlikni g‘animat bilishi kerak?
7. Hayotsevarlik g‘oyasi yana kimlarning ijodida ustun turadi?
8. "Saddi Iskandariy"dagi kabutardek bo‘lishni xohlar edingizmi?
9. Tuyuqlar, sizningcha, nega kishida zavq uyg‘otadi?
10. Tuyuqlar zamirida ham axloqiy mohiyat mavjudmi?
11. O‘zbek mumtoz adabiyotida sarv daraxtining e‘tirof etilish sababi nima?
12. Navoiyning donishmandligini yana bir bor isboti sifatida qaysi ruboy yoki tuyuqni ayta olasiz va fikringizni isbotlang?

Fard-arabcha "yakka", "tanho", "boshi ochiq", "yolg‘iz", "sheriksiz" ma‘nolarini beradi. Xalq orasida qo‘yilgan "Farid", "Farida" ismlari ham shu ma‘nolardan kelib chiqqan. Eski o‘zbek tilida "shohbayt" ma‘nosini bersa, hozirda mumtoz adabiyotdagi alohida bir baytdan iborat mustaqil janrni ifodalaydi. Navoiy fardlarini "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritgan bo‘lib, umumiy soni - 86ta.

Bu janrda pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. Xuddi maqol yoki hikmatli so‘zga o‘xshaydi. Quyidagi fardini tahlil qilish tavsiya etiladi:

"Ulki sanga eldin erur aybgo' "...fardi
Ulki sanga eldin erur aybgo',
Elga dog'i sendin o'lur aybjo'.

Notanish so'zlar:

Aybgo'-ayb aytuvchi

Dog'i-yana,ham , tag'in

Aybjo'-ayb qidiruvchi

Ma'nosi:

Kimki senga odamlarning aybini aytsa, bilginki, u sendan ham ayb topib, boshqalarga yetkazadi.

Bu bilan biz birovlarni aybini topib kelib, ulardan shikoyat qilayotgan odamning gapiga parvo qilmasligimiz, avvalo, birovdan ayb topmasligimiz kerakligi aytilyapti.

Bugungi zamon uchun ushbu fard judayam mos tushadi. Biz bu fardni doimo yodda tutib, unga amal qilishimiz lozim. Mana katta hayot sari qadam tashlayapsiz. Sizni xatoliklardan, murakkab muammolardan asrashda ham Navoiyning fardlari katta kuch bo'ladi.

O'quvchilardan bugungi dars bo'yicha savollar bor - yo'qligi so'raladi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Darsni mustahkamlash: Bunda "Klaster" metodidan foydalanamiz.

Baholash: Darsda ishtirok etgan har bir o'quvchi izohi bilan baholanadi. Rag'batlantiriladi. Bunda noan'anaviy yondashish mumkin. Ya'ni odatdagi baholardan emas, balki Navoiyning surati tushirilgan kichkina qog'ozchalardan. Ular o'quvchilar daftariga yopishtirib qo'yiladi.

Bugungi kunda mumtoz adabiyotga nisbatan o'quvchilarning qiziqishi kamayib bormoqda. Shuning uchun Navoiy va asarlarini o'qitishda 8-sinf o'quvchilariga darsni shu tarzda tashkil etish bir muncha ahamiyat kasb etadi: o'quvchining Navoiy shaxsiyatiga bo'lgan qiziqishi ortadi, turli xil metodlar yordamida darsni puxta o'zlashtirishga intiladi, mumtoz adabiyotni o'rganishi osonlashadi, Navoiy tarjimai holi va asarlari orqali qator insoniy tushunchalarni shuuriga jo qilib boradi, o'quvchining ma'rifatparvarlik tuyg'usi o'qituvchining mehnati va o'zining tirishqoqligi orqali ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi, 1992 203-bet.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: Shafolat nur fayz, 2010 294-bet.
3. Hadis ("Al-jome'as-sahih "). 1-2-jildlar. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
4. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. - T.: G'afur G'ulom, 2019 65-87-betlar.